

**Shaymanov Fozilbek To‘lqin o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi o‘qituvchisi**

AXBOROT XAVFSIZLIGINING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot xavsizligi masalasi ko‘rib chiqilib, axborotning maqsad va vazifalari falsafiy tahlil etiladi. Texnik taraqqiyot rivojlanishi va integratsion jarayonlarning tobora kengayishi natijasida axborot oqimi, uning jamiyatga tasiri vertuallishishini ko‘ish mungkin.

Kalit so‘zlar: Axborot, xavfsizlik, ijtimoiy tahlil, kiberjinoyatchilik, tahdidlar, virtual olam.

KIRISH

Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta’minalashni ham taqozo etayotir. O‘zbekiston axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro xavfsizlik tizimiga Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib qo‘sildi. Axborot xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bugungi kunga kelib, ma’lumotlar uzatish, telekommunikatsiya tarmoqlari, teleradioefir hamda axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta’minalashni takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini yuritish tobora ortib bormoqda

Telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo‘yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bugunning talabi hisoblanadi.

Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligi hodisalarining oldini olish bo‘yicha o‘zaro amaliy ishlarni tashkil etish maqsadida axborot xavfsizligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi Axborot xavfsizligini ta’minalash markazi kuni-tun faoliyat yuritmoqda.

Mazkur Markazning asosiy maqsadi etib, «Elektron hukumat» tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta’minalash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, davlat organlari tizimlari va axborot resurslarida axborot xavfsizligini ta’minalash belgilangan.

Markaz xodimlari axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtidagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash bilan shug‘ullanadilar, «Elektron hukumat» tizimi axborot tizimi, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minalaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni samarali qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadilar. “Elektron hukumat” tizimi axborot xavfsizligini ta’minalashning me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarini ishlab chiqish ham Markazning maqsad-vazifalari hisoblanadi.

Telekommunikatsiya tarmoqlari va aloqa kanallaridagi tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining kiberxavfsizligini ta'minlash alohida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining qonuni kiberxavfsizlik to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 25-fevralda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 17-martda ma'qullangan. Ushbu qonun 40 moddadan iborat bo'lib sohaga oid tartib intizomni saqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda kibertahdid va xatarlardan himoyalanish borasida OO'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi loyihasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi pf-5099-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-dekabrdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasini yanada rivojlantirish va uning mablag'laridan samarali foydalanish to'g'risida"gi 356-sonqarori, shuningdek, 2022-2023 yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va "Kiberxavfsizlikto'g'risida"gi qonun mavzuning asosiy adabiyotlarini tashkil etadi.

NATIJALAR

"Axborot urushi" atamasi birinchi marta 1976-yilda amerikalik mutaxassis Tomas Rona tomonidan Boeing kompaniyasi uchun "Qurol tizimlari va axborot urushi" deb nomlangan hisobotida qo'llanilgan. Ronaning ma'ruzasi so'nggi yillarda axborot infratuzilmasi AQSh xavfsizliginingning asosiy tarkibiy qismiga aylanganini isbotladi. "Axborot urushi" atamasi birinchi marta 1992-yilda AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan rasman ishlatilgan. Pentagonning axborot urushiga oid hujjatida axborot ham quroq, ham nishon ekanligi ta'kidlangan:

Axborot hujumi – bu axborotni ruxsatsiz, shuningdek, dasturiy, texnik vositalar va inson psixologiyasini har qanday shaklda uzatish, o'zgartirish yoki yo'q qilish bo'yicha operatsiyadir. Rossiyalik ekspertlar kurashning bu shaklini axborot qarama-qarshiligi deb ta'riflaydilar. Ikki qarama-qarshi qutib (G'arb va Sobiq Ittifoq) sovuq urush 1945-1991 yillarda juda keskin axborot urushlarini tarixiy faktlarda ko'rishimiz mungkin.

Axborot urushlari davrida axborot ustunligiga erishish muhimdir. Bu vaziyat haqida doimiy ma'lumot oqimini to'plash, boshqarish, tarqatish va raqibning shunga o'xshash urinishlarini oldini olish qobiliyati singari xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Axborot tarmog'i axborot urushi ishtirokchilari tomonidan salbiy va anonim ma'lumotlarni nazoratsiz joylashtirish imkonini beradi. Internetda axborot urushini yanada samarali va muvaffaqiyatli qiladigan bir qator belgilar mavjud. Masalan, tomoshabinlarning mashhurligi ana shunday belgilardan biridir. Qolaversa, axborot-kommunikastiya texnologiyalari rivoji tufayli harbir foydalanuvchi istalgan vaqtida, istalgan joyda internetga kirishi va undan foydalanishi mumkin. Bugungi kunda ko'plab ilmiy markazlarda muhokama qilinayotgan asosiy masalalardan biri bu psixologik axborot urushi – "miya urushi"dir. Chunki bunday urushlarda asosiy ta'sir obekti inson ruhiyati, guruh psixologiyasi va butun jamiyatlardir. Psixologik konfliktda tashviqot alohida o'rin tutadi. Shunday qilib, urush davrida

targ‘ibot-tashviqot faoliyati odamlarning asosiy tuyg‘ulariga ta’sir qilish, nafrat, qo‘rquv, dahshat uyg‘otish, inson ruhiyatini buzishga qaratilgan.

Axborot bu kuch. Axborot orqali xalqning ongi, madaniyati, mentalitetiga, hukumatning axboriy, siyosiy tuzulmalarigadeskturiktiv ta’sir o’tkazish mumkin. Axboriy xuruj haqiqiy qurolli urushga qo‘yilgan bиринчи qadamdir. Axborot xavfsizligini ta’minlashning bugungi kunda dolzarbligi shu holat bilan belgilanadi. Insoniyat “axboriy jamiyat” deb atalmish yangi bir davrga qadam qo‘yayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta’minlash har doimgidan ham zarur. Axborotlashtirish - axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o‘z-o‘zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui. Informatsion jarayonlar-axborotni qidirish, yig’ish, qayta ishslash, to‘plash, saqlash va tarqatish jarayoni. Axborot tizimi (informatsion sistema)-informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingan hujjatlar hamda axborot tehnologiyalari majmui. Axborot resurslari muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma’lumotlar ba’zasi kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar jamlanmasi hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy axborot -ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a’zolari, ijtimoiy guruuhlar, siyosiy tashkilotlar o‘rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o‘z faoliyatida foydalanadigan bilimlar, ma’lumotlar va xabarlar yig’indisi. Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o‘rtasidagi aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish,targ‘ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Batafsilligi, asoslanganligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda ommaviy axborot vositalari muhim ro‘l o‘ynaydi. Ijtimoiy-madaniy ma’noda axborot iste’mol madaniyati insonning muayyan ma’naviy-ahloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarni o‘zlashtirgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko‘rsatishini anglatadi. Axborot iste’moli madaniyati (O‘zMU tadqiqotchisi U.Qo’shaev tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan tushuncha) axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o‘zida ifoda etadi. Axborotlashgan jamiyat-kishilik jamiyatni rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifati holatini tavsiflovchi tushuncha. Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilar ijtimoiy rivojlanishni “bosqichlar almashinuv” nuqtai nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo‘lgan iqtisodiyotning to‘rtinchi –“axborot sektori” yuzaga kelishi bilan bog‘laydilar. Ularning fikriga ko‘ra, industrial jamiyatning asosi bo‘lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o‘z o‘rnini axborot va bilimga bo‘shatib beradi. Axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bugungi kunga kelib jamiyatning axborotlashuvini yaxshi va yomon jihatlarga ajratish mumkin.

Jamiyatni axborotlashuvi natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar:

- Siyosatda gegimonlikka intilayotgan davlatlar axborot siyosatida o‘zining ta’sirchan mexanizmini ishlab chiqdi hamda o‘z madaniyatini targ‘ib qilish maqsadida axborot manbalaridan qurol sifatida foydalana boshladi;
- Turli tipdagи madaniyatlar til, hamda OAV kanallari orqali kirib kela boshladi natijada mamlakatlarning tarixiy ildizlari yemirila boshladi;
- Ichki va tashqi tahdidlardan davlat, jamiyat va shaxsning iqtisodiy mafaatlarini milliy va xalqaro darajada himoya qilish xavfi yuzaga keladi.Jamiyat rivojlanishining zamonaviy davri axborotlashtirish jarayoni bilan ajralib turadi. Bugungi axborot davrida har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining ko‘zgusi, kishilarning tafakkuri va siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita bo‘lib kelmoqda. Jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiya,

mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlarida axborotning ahamiyati, xususan, axborot erkinligi va ochiqligi masalasi shaxs, jamiyat va davlat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy axborot tizimining shakllanganligi harqanday mamlakatning salohiyati va taraqqiyotini belgilovchi omil bo‘lib sanalmoqda

MUHOKAMA

Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergen organ amalga oshirishi belgilab qo‘yilgan. Mazkur qonundagi davlat sirlari to‘g‘risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo‘yilgan axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari erkin foydalanilishi cheklab qo‘yilgan axborot resurslariga kiradi va axborot resurslarining mulkdorlari va egalari hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot resurslaridan yuridik hamda jismoniy shaxslarning teng huquq asosida erkin tarzda foydalanishini ta‘minlashi kerak, axborot resurslarini erkin foydalanish toifalariga kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda axborot resurslarining mulkdori tomonidan aniqlanadi deb belgilab qo‘yilgan norma orqali mamlakatimizda axborotlarning turkumlanishiga guvoh bo‘lamiz.

Axborotlashtirish to‘g‘risidagi va boshqa jami 20 dan ortiq axborot sohasida qonunlar, 50 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va 300 dan ortiq idoraviy qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Mustaqillik yillarda yaratilgan bunday huquqiy maydon ommaviy axborot vositalariga o‘z vazifalarini samarali bajarish hamda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarga, kommunikatsiya vositalarining rivojlanish darajasiga yetishish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni asosida axborotlashtirish – bu yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot tehnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni hisoblanadi. **Axborotlashgan jamiyat** – bu globallashgan ijtimoiy jarayon bo‘lib, uning o‘ziga hos asosiy xususiyati shundan iboratki, ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida faoliyatning ustuvor turi sifatida zamonaviy kommunikatsiya tehnologiyalari hamda axborot almashuvining xilma-xil vositalari asosida amalga oshirilayotgan axborotni izlash, yig‘ish, olish, tadqiq etish, uzatish hamda tarqatishdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamon taraqqiy etgan sari jamiyatda axborotga bo‘lgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda, ayniqsa, axborot texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi axborotlar hajmining ham ortib borishiga xizmat qilib kelmoqda. Bu kabi axborotlar ichida ma’lum ma’noda himoyani, mahfiylikni va sir saqlanishini talab etadiganlari ham bo‘ladi, negaki, bu toifadagi ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi, o‘g‘irlanishi yoki yo‘q qilinishi, kiber hujumga uchrashi kabi holatlar davlat va fuqarolar, tashkilotlar uchun katta talofotlarni, moliyaviy yoki moddiy zararlarni olib kelishi mumkin. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun esa qanday soha bo‘lmasin albatta, axborot xavfsizligini, uning himoyasi va muhofazasini amalga oshirishi lozim. Axborot xavfsizligi bo‘yicha har bir rahbar va mutaxassislar tashkilot faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va tashkilotda yetarli darajada axborot xavfsizligini ta‘minlashda amaliy chora va tadbirlarni ko‘rishlari darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirjalol, S. (2023). AXBOROT URUSHINING DAVLAT XAVFSIZLIINI TA'MINLASHDAGI STRATEGIK IMKONIYATLARI. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 11, 78-83.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-sen. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.04.2022-y., 03/22/764/0313-sen).
3. Грешневиков А.И. Информационная война. Внешний фронт. Зомбирование, мифы, цветные революции. Книга I. М.: Книжный мир, 2016. -512 с.
4. Беляев Д. Разруха в головах. Информационная война против России. Серия: Николай Стариakov рекомендует прочитать. СПб. Питер. 2014. -256 с.
5. Atamuratovich, K. E. (2021). Fruit and Vegetable Sector of Agriculture in the Years of Independence: Development, Challenges and Results. JournalNX, 7(10), 124-127.
6. Khasanov, S. (2024). SOCIO-ECONOMIC CONDITION OF THE FRUIT AND VEGETABLE NETWORK OF UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF INDEPENDENCE. GOLDEN BRAIN, 2(8), 154–160. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10861650>.
7. MUAMMOLARI, A. X. (2022). AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI. Scientific Impulse, 1(4), 617-619.
8. Abbosxonovna, B. S. (2023). INFORMATIKADA AXBOROT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 674-677.
9. Rashidovna, H. M. (2023). TEMURIY MALIKALARING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(4), 763-772.